QO‘QON ADABIY MUHITIDA AYOL SHOIRALAR IJODI

Omonova D.
TDPU talabasi
Ilmiy rahbar: ***Omanova M.***
TDPU dotsenti, f.f.f.d.,(PhD)

Tayanch so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, Shoiralar hayoti, Fazliy Namongoniyning “Majmuoi shoiron” asari, Uvaysiy lirikasi, Komila, Maknuna, Nodiraning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Mahzuna , mushoira, “Oshiqman” mushoirasi.

Ключевые слова: литературная среда Кокана, жизнь поэтов, произведение Фазлия Намонгони «Маджмуой шайрон», лирика Увайси, Комила, Макнуна, общественно-политическая деятельность Надиры, Махзуна, мушойра, мушойра «Ашикман».

Key words: literary environment of Kokan, life of poets, Fazliy Namongoni’s work “Majmuoy shairon”, lyrics of Uvaisi, Komila, Maknuna, socio-political activities of Nadira, Makhzun, mushoyra, mushoyra “Ashikman”.

Qo‘qon – Farg‘ona vodiysining butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan eng qadimiy ilm-fan o‘choqlaridan biri. XIX asr boshlarida shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o‘rin tutgan. Qo‘qon hukmdorlarning qator namoyondalari temuriylar an’anasini davom ettirib, o‘zlari ham she’riyat ilmining ravnaq topdirishga katta sa’y-harakat ko‘rsatganlar. Ayniqsa, bunda Qo‘qon xonlaridan Umarxon va Muhammad Alixon davrlari yaqqol ajralib turadi. Qo‘qon adabiy muhitining muhim xarakterli jihati shundaki, bu davrda bir qator taniqli o‘zbek shoiralari istedodi keng rivoj topdi. Masalan, Dilshod Barno, Zebuniso, Mohzoda Begim, Mahzuna, Mushtariy, Nodira, Nozuk Xonim, Uvaysiylarning ijodi ayricha ahamiyatga molikdir.

XVIII – XIX asr o‘rtalaridan buyon eng ko‘p izlanishlar olib borilgan mumtoz adabiyotimiz vakillaridan biri Jahon Otin Uvaysiydir. Uvaysiy Qo‘qon xonligida yashab ijod etgan Nodira va Mahzuna kabi shoiralar qatorida munosib o‘rin egallagan. Jahon Otin O‘rta Osiyoning eng qadimiy svilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan Marg‘ilonda san’atsevarlar oilasida

dunyoga kelgan. Uning adabiyotga ixlos qo‘yishiga otasining o‘rni juda ham katta. Ba’zi manbalarda otasining Qalandar tahallusida she’rlar bitgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Ham to‘quvchilik ham rassomlik bilan kun kechirgan Qalandarning fors-tojik tillarida bitilgan she’rlari Fazliy Namongoniyning “Majmuai shoiron”asarida keltirib o‘tilgan.

Jahon Otin Uvaysiyning saroydagi hayoti bevosita shoira Nodira bilan bog‘liq. Xonlik tarixida “zolim xon” deb nom qoldirgan Amir Olimxonning vafotidan so‘ng taxtga kelgan Amir Umarxon va uning turmush o‘rtog‘i Mohlaroyim – Nodira Uvaysiyning badiiy mahoratiga katta qiziqish bildiradi. Olovli va jo‘shqin g‘azallari bilan Nodira e’tiboriga tushgan Uvaysiy saroyga taklif qilinadi. Keyinchalik aql-zakovati, pok axloqi tufayli qisqa fursatda katta jonbozlik ko‘rsatadi, xalq orasida keng tarqalgan shon-shuxrati saroyda ham tarannum etiladi.

Chunonchi, Uvaysiy ijodining eng yorqin davrini saroyda Amir Umarxon va Nodira homiyligi ostida o‘kazadi. Saroyda maktabdorlik bilan shug‘ullanadi va kanizaklarga ta’lim-tarbiya bera boshlaydi. Amir Umarxon vafotidan keyin Uvaysiy Marg‘ilonga ota uyiga qaytadi va ijodiy faoliyatini shu yerda davom ettiradi.

Jahon otin Uvaysiy lirik merosiga nazar tashlasak, lirikasida ustozlari Lutfiy, Fuzuliy, Alisher Navoiyning ta’sirini sezamiz. Shu jihatdan shoira lirikasining mavzu ko‘lami keng va rang-barang. Shoira mumtoz lirikamizdagi asosiy mavzularni davr talabidan kelib chiqib yangilaydi, yangicha ruh beradi desak mubolag‘a emas. Shoira asarlaridagi asosiy mavzu – ishq. Ammo shoira g‘azallarida tilga olingan ishq insoniy go‘zalliklarni tasvirlashdagina qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda Uvaysiy lirikasidagi bosh qahramonlar ezilgan, xo‘rlangan, barcha huquqlardan mahrum qilingan ayollardir. Uvaysiy mazlum tabaqa vakillari haq-huquqini himoya qilar ekan, jamiyatdagi adolatsizlik, jabr zulmga ko‘z yummagan holda g‘azallarida ham isyonkorona ruhni ustun tutadi. Bir so‘z bilan aytganda, uning lirik qahramonlari hayotning barcha g‘am-tashvishlariga ko‘ngan xotin-qizlardir. Ayni paytda shoira shavqatsizlik va jabr-zulmga qarshi do‘stlik va sadoqatni kuylashga alohida ahamiyat qaratadi. Uvaysiy g‘azallarida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik doimo kurashda bo‘ladi. U asarlarida yovuzlikka qarshi go‘zallikni ustun qo‘yadi.

Badiiy hayotining ko‘p qismini saroyda o‘tkazgan bo‘lsa-da, asarlarida ijtimoiy masalalarga ko‘proq diqqatini qaratadi. Lirikasida ishq mavzusi bilan birga jabrdiyda, jimjimador xalq ommasi ayniqsa, faqat cheklovlar ostida yashashga mahkum bo‘lgan ayollar qismati yoritilib beruvchi ijtimoiy

masalalar keng o‘rin egallaydi. Shoira o‘zining hayotida boshidan kechirgan baxtsizliklari, qayg‘u va tashvishlari, yolg‘izligini ham g‘azallariga singdiradi. Shunday bo‘lsada, shoira o‘zi yashayotgan jamiyatga nihoyatda hurmat bilan qaraydi, uning har bir urf-odatini, qadriyatini qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi.

Uvaysiy aruzning deyarli barcha janrlarda xususan, g‘azal janrida nodir namunalar yarata olgan. G‘azallari tilining soddaligi va ravonligi e’tiborga molik. Lirikasida qo‘llanilgan talmeh, mubolag‘a va o‘xshatishlar shoira badiiy mahoratining naqadar yetukligidan dalolat beradi. Haqiqatan, Uvaysiy o‘z uslibiga ega bo‘lgan shoira. Biroq uning mumtoz adabiyotimizdagi boshqa shoiralardan ajratib turadigan eng muhim xususiyati chiston yaratishdagi mahoratidir. Nafaqat o‘zbek adabiyotida balki butun sharq mumtoz adabiyotida chistonning g‘oyat go‘zal va mukammal namunalari Alisher Navoiy va Jahon Otin Uvaysiy tomonidan yozilganligi sir emas.

Uvaysiyning to‘laqonli badiiy faoliyatida farg‘ona hofizlari va roviylari tomoniodan kuylangan lirik she’r va dostonlarining ahamiyati katta. Bizgacha Uvaysiyning to‘rtta devoni va uchta dostoni yetib kelgan. Biroq bu asarlarning qo‘lyozma nusxalari haligacha topilmagan. Ko‘chirilgan devonlari ichida eng yirigi Andijon kutubxonasida saqlanayotgan Mag‘ziy nusxasidir. Bu nusxada g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy janrida yozilgan namunalaridan tashqari Alisher Navoiy, Fuzuliy, FAzliy Namongoniy kabi shoirlarning g‘azallariga yozilgan tahmislar kiritilgan.

Manbalarda Nodirabegim nomi bilan tilga olinadiga Mohlar oyim XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoiralardan biri hisoblanadi. . Nodira Komila, Maknuna tahalluslarida ham ijod qilgan. Avvalo, saroyda Amir Umarxonning turmush o‘rtog‘i sifatida davlat boshqaruvida faol ishtirok etadi. Qolaversa, Amir Umarxon bilan birgalikda san’at va madaniyatga katta e’tibor qaratadi. Umuman olganda, Qo‘qon xonligi saroyini ilm-fan va madaniyat markaziga aylantiradi. Nodira shoir va shoiralar faoliyatiga homiylik qilish barobarida, xotin-qizlarni o‘qitish orqali aholining ta’lim darajasini oshirishga harakat qilgan. Shoira Komila, Nodira,Maknuna tahalluslaridadi ijod namunalarini to‘plab uchta devon tuzgan. Fors-tojik tillarida yozgan asarlarida Maknuna tahallusini qo‘llagan.

Nodira lirikasining bosh mavzularidan biri – ishq. Uvaysiydan farqli o‘laroq Nodira, g‘azallarida vafo va sadoqatni kuylaydi. Bundan tashqari jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni qalamga oladi. Lirikasida Ahmad Yassaviy hikmatlari va yassaviylik tariqatiga monand yondashuvlar sezilib turadi. Tasavvuf ya’ni diniy ilmlar Alisher Navoiy, Fuzuliy izidan izdoshlik qilayotgan

shoiraning o‘ziga xos mavzularidan biridir. Komila tahallusi bilan tuzgan devonida asosan diniy mavzudagi asarlari o‘rin olgan. Devon muqaddimasida Alloh taologa hamd-u sanolar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislaridan namunalar keltirib o‘tiladi. Shoira devonlarining qo‘lyozma nusxalari hozirgi kunda O‘zFA da saqlanmoqda.

XVIII-XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida ko‘zga ko‘ringan shoiralaridan yana biri Mahzunadir. Shoirasning hayoti va ijodi haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Mahzunaning tarjimai holi haqidagi ma’lumotlarni faqatgina o‘zining asarlari orqaligina bilib olishimiz mumkin. Fazliy Namongoniyning “Majmuoi shoiron” asarida keltirilishicha, “Qo‘qon xoni o‘zi ham Amiriy tahallusida ijod qilgan. Amir Umarxon saroyida sultondan tortib vazir va darveshgacha, hatto oddiy askarda ham she’riyatga, san’atning biror turiga qiziqish bo‘lgan. Xonlikda madaniyat yuksalgan shunday davrda Qo‘qonda Nodira, Uvaysiy va Mahzuna kabi ayol shoiralar yetishib chiqqan”.

Mahzunaning adabiy faoliyati va yozgan asarlari haqida yozma manbalar kam. Bugungi kungacha mavjud bo‘lgan yagona manbaa “Majmuoi shoiron”da keltirilgan Fazliy va Mahzunaning “Oshiqman” mushoirasidir. Ammo bu mushoira qachon va nima sababdan bo‘lganligi haqida hech bir ma’lumot uchramaydi. Shoiraning “Oshiqman” mushoirasi haqida qisqacha ma’lumotlar “O‘zbek she’riyati antologiyasi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi antalogiyasi” kitobida keltirilgan:

Fazliy

-Yuz ofarin so‘zingga lubbi lubob ko‘rmay,

Arzi jamol etarmu, oyina ob ko‘rmay?

Mahzuna:

– Kimdin chiqar bu so‘zlar bag‘rin kabob ko‘rmay,

Ganj o‘lmag‘ay muyassar holing xarob ko‘rmay.

Fazliy va Mahzuna o‘rtasidagi mushoira adabiyotshunoslar orasida turli bahs-munozaralarga ham sabab bo‘lmoqda. Fors adabiy tilida yozilganligi uchun anchagina eski tarixga borib taqalishi ham mumkin. Fazliyning tazkirasida Mahzunaning oqila va hozirjavobligi, Qo‘qonda mashhur shoira ekanligi aytilgan. Hashmat, Pisandiy, tarixchi Ahmadjon to‘ralar ham Mahzunaning barkamol shoiraligini xabar qiladilar. Uning she’riy qobiliyati, shaxsiy fazilatlari haqida eng ko‘p va iliq fikrlar yozib qoldirgan yagona shoir hozircha Fazliydir. «Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir», deydi Fazliy Namongoniy o‘z asarida.

O‘g‘zaki rivoyatlarga qaraganda, Mahzunaning otasi mulla Bashman o‘z davrining bilimli, ziyoli shaxsi sifatida qizi mahzunaga juda yaxshi

ta’lim bergan. Shoirlar bilan bo‘lgan mushoiralardagi hozirjavobligi, zehni o‘tkirligining asosiy sabablaridan biri sifatida ham otasi bergan ta’lim-tarbiyani ko‘rsatishimiz mumkin.

Darhaqiqat, sharq ayoli nazokat, donolik, kamtarlik andozasidir. U yoqimli gul kabi barchaga go‘zalligini, muhabbatini va mehrini beradi. Har bir sharq ayoli noyob va iste’dodlidir. O‘zbek she’riyatida ham bir guruh Qo‘qon shoiralari sharq ayollarining go‘zalligini kuylagan. Ulardan ba’zilari murakkab taqdirni boshdan kechirdilar, biroq ular qoldirishga muvaffaq bo‘lgan izi juda yorqindir. Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Mahzodabegim, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar tomonidan yaratilga mumtoz adabiyot naunalarini tog‘ zumradi singari noyob, lekin juda qadrli desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Adabiyot xristomatiyasi.–Toshkent: G‘.G‘ulom, 2017
2. Adizova I. Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Monografiya.– Toshkent: Muharrir, 2020
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat.–Toshkent: 2001
4. Haqqulov I. Uvaysiy she’riyati. –Toshkent: 1982
5. Hayitmetov A. Jahonotin Uvaysiy lirikasi.– Toshkent: Sharq yulduzi, 1982
6. Jumaxo’ja N. Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi.– Toshkent: Muloqot, 1999
7. Karabayeva D. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent: Fan, 2017

РЕЗЮМЕ

Maqolada Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi, Amir Umarxon davrida saroyda faoliyat yuritgan shoiralar hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar keltirildi. Ularning saroydagi hayoti, madaniy hayotda tutgan o‘rnini bayon qiluvchi asarlardan parchalar sharhlandi. Shoiralar lirikasidagi ba’zi jihatlari tahlilga tortildi.

РЕЗЮМЕ

В статье предоставлены сведения о становлении литературной среды Коканда, жизни и творчестве поэтов, работавших во дворце во времена Амира Умар-хана. Были интерпретированы отрывки из произведений, описывающих их жизнь во дворце и их место в культурной жизни. Проанализированы некоторые аспекты лирики поэтов.

SUMMARY

The article provides information about the formation of the literary environment of Kokand, the life and work of poets who worked in the palace during the time of Amir Umar Khan. Excerpts from works describing their life in the palace and their place in cultural life were interpreted. Some aspects of the poets' lyrics are analyzed.